

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA LOYIHA METODINING SHAXSIYLASHTIRISH OMILI SIFATIDAGI IMKONIYATLARI

Nurmetova Intizor Adambayevna
Osiyo Xalqoro Universiteti 1-bosqich magistiranti 2025

Annotatsiya: Ushbu tezisda mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishda loyiha metodining pedagogik ahamiyati, ayniqsa ta'limni shaxsiylashtirishdagi imkoniyatlari ilmiy nazariy amaliy jihatdan tahlil etiladi. Muallifning amaliy tajribasi asosida loyiha metodining o'quvchi (talaba) faolligini oshirish mustaqil fikrlash, ijodkorlik va mas'uliyatni rivojlantirishdagi o'rni yoritilib beriladi. Mazkur tezisda pedagogik asoslari va uning shaxsiylashtirish omili sifatidagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Loyiha metodi o'quvchining individual qobiliyati, tafakkur darajasi, qiziqishi va ehtiyojlariga moslashtirilgan mustaqil ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Mazkur metodning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u o'quvchini bilishga yo'naltirilgan faol subyektga aylantiradi, o'z-o'zini boshqarish, ijodkorlik, mas'uliyatlilik va muammo yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqot davomida loyiha metodining shaxsiylashtirishdagi o'rni, afzalliklari hamda ta'lim jarayoniga integratsiya qilinish mexanizmlari keng yoritilgan.

Kalit so'zi: Mustaqil ta'lim, loyiha metodi, shaxsiylashtirish, ta'lim jarayoni, individual yondashuv, o'quv faoliyati, pedagogik innovatsiya, kompetensiya, ta'lim texnologiyalari, ijodkorlik.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli ta'lim sharoitida ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvlar joriy etilmoqda. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish muhim pedagogik masala hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim oluvchining shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni yuqori natija beradi.

Shu nuqtayi nazardan, loyiha metodi mustaqil ta'limni tashkil etishda samarali metodlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur metod ta'lim oluvchini bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi subyekt sifatida shakllantiradi. Bugungi kunda ta'lim tizimida sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar, innovatsion yondashuvlar va raqamli muhitning kengayishi o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda mustaqil ta'lim o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta'limning samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llaridan biri — loyiha metodidan foydalanishdir.

Loyiha metodi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish, ijodiy yondashuv, mas'uliyat va o'z-o'zini boshqarish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, uni shaxsiylashtirilgan ta'lim modelining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qarash mumkin. Mazkur metod o'quvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda bilim olish jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi.

Jahon pedagogikasida John Dewey, Ekaterina Sergeevna Polat, Vladimir Vladimirovich Guzeev kabi olimlar loyiha metodini shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning eng

samarali vositalaridan biri sifatida ishlab chiqqan. Ularning ilmiy qarashlari ta'lim jarayonida o'quvchi faolligini oshirish, bilimni amaliyot bilan bog'lash hamda shaxsning ichki salohiyatini yuzaga chiqarish zarurligini asoslaydi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham mustaqil ta'limning ulushi ortib borayotgani, o'quvchining individual rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilayotgani, loyiha metodiga bo'lgan qiziqish kuchayganini ko'rsatadi. Bu esa pedagogik jarayonni shaxsiylashtirish tamoyillariga asoslangan holda tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi.

Shu bois ushbu tadqiqotda mustaqil ta'limni tashkil etishda loyiha metodining shaxsiylashtirish omili sifatidagi imkoniyatlarini o'rganish, nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish, uning pedagogik ahamiyatini yoritish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar taxlili: Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, loyiha metodi zamonaviy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asosiy vositalaridan biridir.

□ Amerikalik pedagog olim John Deshey loyiha faoliyatini amaliy tajriba va o'quvchi faol ishtiroki orqali ta'limni tabiiy jarayonga aylantiruvchi metod sifatida talqin etadi.

Uning fikricha, o'quvchi tajribani o'zi yaratgandagina haqiqiy bilim paydo bo'ladi.

□ Rossiyalik metodist olima Ekaterina Sergeevna Polat loyiha metodining zamonaviy ta'limdagi ahamiyatini chuqur o'rgangan bo'lib, uning o'quvchi mustaqilligini oshirish, shaxsiy imkoniyatlarni namoyish etish va bilimni amaliyotga tatbiq etishda muhim vosita ekanini ta'kidlaydi.

□ Pedagog olim Vladimir Vladimirovich Guzeev tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar loyiha metodining mazmuniy tuzilishi, bosqichlari va o'quvchi faolligini oshirishga qaratilgan mexanizmlarini asoslab beradi.

O'zbek pedagogika adabiyotlarida ham loyiha metodi mustaqil ta'limni takomillashtirishda muhim omil sifatida talqin qilinadi.

Xususan, o'quvchining individual xususiyatlariga moslashtirish jarayoni ta'lim samaradorligini oshirishi, o'zlashtirish sifatini yaxshilashi hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirishi ilmiy tadqiqotlar bilan isbotlangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, loyiha metodida o'quvchi markaziy o'rinda turadi va jarayonni o'zi boshqaradi. Bu esa shaxsiylashtirilgan ta'limni amalga oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

Xulosa

O'tkazilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1 .Loyiha metodi mustaqil ta'limni shaxsiylashtirishda eng samarali vositalardan biridir

2.Mazkur metod o'quvchining individual qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni ta'minlaydi.

3.O'quvchilar loyiha faoliyati orqali mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatlarda yechim topish, vaqtni boshqarish va mas'uliyat kabi ko'nikmalarni egallaydilar.

4.O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik kuchayadi, ta'lim jarayoni interfaol va natijaviy tus oladi.

5.Loyiha metodi o'quvchini o'z o'quv faoliyatining faol tashkilotchisiga aylantirib, ta'limning shaxsga yo'naltirilgan modelini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Deshey John. Demokraky and Edukation.-New York: The Macmillan Company, 1916.-368 bet
- 2.Polat Ekaterina Sergeevna. Proektny metod v obuchenii.- Moskva: Akademiya 2000.-272 bet.
- 3.Guzeev Vladimir Vladimirovich. Metod proektov: teoriya i praktika.- Moskva, Pedagogika 2002.-256 bet.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.-Toshkent, 2020-34 bet
- 5.Zamonaviy pedagogika bo‘yicha ilmiy maqolalar, OTM o‘quv qo‘llanmalari va tadqiqotlar. Toshkent, 2018-2024.-150-300 betlar.